

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT XATI**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 4 noyabrdagi “2025–2026 yillarda mamlakatimizda qatag‘on qurbonlari hayoti va faoliyatini targ‘ib etish ishlarni yanada jadallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 691-sonli qarori hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining topshiriqlari ijrosini ta’minlash maqsadida Chirchiq davlat pedagogika universiteti Sizlarni **“O‘zbekistonda qatag‘on qurbonlarining merosi: tarix, xotira va ma’naviy saboqlar”** mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanida ishtirok etishga taklif etadi.

Ushbu anjuman 2026 - yil 9 - sentyabr kuni Chirchiq davlat pedagogika universitetida bo‘lib o‘tadi va milliy tarixini tiklash, qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish hamda jadid ma’rifatparvarlarining bebaho merosini ilmiy muhokama qilishga bag‘ishlanadi.

Anjumanning asosiy maqsadi — XX asrdagi siyosiy qatag‘onlar tarixiga oid so‘nggi tadqiqot natijalari va arxiv manbalarini muhokama qilish, qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish hamda tadqiqotchilar o‘rtasida ilmiy hamkorlikni mustahkamlashdan iborat.

Anjumanning asosiy yo‘nalishlari (sho‘balari):

1-sho‘ba: Jadidchilik harakati va ma’rifatparvarlarning ijtimoiy-siyosiy faoliyati.

2-sho‘ba: XX asrning 20–50-yillaridagi siyosiy qatag‘onlar tarixi va manbashunosligi.

3-sho‘ba: Mustaqillik yillarida qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish va muzeylashtirish amaliyoti.

Ilmiy-amaliy anjumanda ishtirok etish uchun oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy-tadqiqot institutlari, muzeylar va arxivlar xodimlari, doktorantlar, mustaqil tadqiqotchilar hamda yosh olimlar taklif etiladi.

Anjumanda ishtirok etish istagida bo‘lganlar **2026 yil 8 sentyabrga qadar** ko‘rsatilgan manzilga ishtirok uchun maqola va tezislarni yuborishlari lozim.

Anjumanning ishchi tillari: **o‘zbek, rus va ingliz tillari.**

Anjuman materiallariga qo‘yiladigan talablar:

- Tezislar va maqolalar (5–6 bet) Microsoft Word dasturida, “Times New Roman” shriftida, 14 hajmda, 1,5 interval bilan yozilishi kerak. Chap qirralari 3 sm, o‘ng qirralari 1,5 sm, yuqori va past qirralari 2 sm bo‘lishi lozim.
- Materiallar elektron shaklda RTF formatida taqdim etiladi.

- Fayl nomi muallifning familiyasiga muvofiq bo'lishi kerak (masalan: *Karimov_tezis.rtf*).
- Maqola nomi BOSH HARFLARDA yozilishi lozim. Maqola nomidan oldin muallifning to'liq ismi, familiyasi, otasining ismi, ilmiy darajasi, unvoni va ish joyi to'liq ko'rsatilishi shart.
- Barcha snoskalar kvadrat qavs ichida beriladi, ularda ilmiy ish raqami va sahifa ko'rsatiladi. Masalan: [1, B. 12].
- Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati matn oxirida alfavit tartibida joylashtiriladi.
- Anjuman materiallari elektron jurnallarda chop etiladi va elektron to'plam shaklida nashr qilinadi.

Manzil: Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, A. Temur ko'chasi, 104-uy. Chirchiq davlat pedagogika universiteti tuzilmasidagi "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi.

Aloqa uchun telefon: telegram [@Nargiza_19822005](https://t.me/Nargiza_19822005) +998 91 778-55-80
(+998 90) 490-35-98